



**ZAMONAVIY O'ZBEK TELEJURNALISTIKASIDA LEKSIK
NORMALARNING TRANSFORMATSIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR**

Go'zal Jalolova Kamoliddin qizi

O'zJOKU 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi kungi mahalliy, xususan, xususiy telekanallar nutqida kuzatilayotgan leksik o'zgarishlar, adabiy til me'yorlarining buzilishi va tilning transformatsiya jarayonlari tahlil qilinadi. Maqolada telekanallardagi ko'rsatuvlar misolida tilning ijtimoiy qatlamlar bilan aloqasini tadqiq etiladi.*

Kalit so'zlar: *adabiy norma, globalizatsiya, leksik qatlam, nutq madaniyati, telejurnalistika, transformatsiya, xususiy telekanallar.*

Kirish

Bugungi kunda ommaviy axborot vositalari, ayniqsa televideniye, jamiyatning nutqiy madaniyatini shakllantiruvchi asosiy kommunikativ maydonlardan biri hisoblanadi. Telekanallar orqali efirga uzatilayotgan ko'rsatuvlar millionlab tomoshabinlarning kundalik nutqiga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli telejurnalist nutqi nafaqat axborot yetkazish vositasi, balki adabiy til me'yorlarini targ'ib qiluvchi muhim omil hamdir.

So'nggi yillarda O'zbekistonda xususiy telekanallarning soni oshishi media makonida raqobatni kuchaytirdi. Natijada auditoriyani jalb qilish maqsadida ko'ngilocharlikka yo'naltirilgan dasturlar soni ortdi. Bu esa ayrim hollarda til me'yorlarining buzilishi, chet tillariga haddan tashqari murojaat qilish, jargon va "ko'cha tili" elementlarining faol qo'llanishiga sabab bo'lmoqda. Tilshunos olim N. Mahmudovning ta'kidlashicha, "nutq madaniyati jamiyatning umumiy ma'naviy saviyasi bilan chambarchas bog'liq" (Mahmudov, 1992, 42-b).

Media tilidagi transformatsiyalar bugungi globallashuv jarayonining tabiiy mahsuli sifatida yuzaga kelayotgan bo'lsa-da, ularning haddan tashqari kuchayishi milliy adabiy tilning barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu jihatdan zamonaviy telejurnalistika tilini ilmiy asosda o'rganish dolzarb masalalardan biridir.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda zamonaviy o'zbek telejurnalistikasi tilida kuzatilayotgan leksik transformatsiyalarni o'rganishda tavsifiy, qiyosiy-tahliliy hamda sotsiolingvistik metodlardan foydalanildi. Tadqiqot obyekti sifatida telekanallaridagi ko'ngilochar, axborotiy hamda ijtimoiy dasturlar tanlab olindi.

Tadqiqot davomida boshlovchilar va ishtirokchilar nutqidagi jargonlar, slenglar, varvarizmlar, shevaga oid birliklar hamda semantik siljishlar kuzatildi va adabiy til me'yorlari bilan qiyosiy tahlil qilindi. Shuningdek, media lingvistik va nutq madaniyati bo'yicha ilmiy adabiyotlar o'rganilib, o'zbek tilshunoslarining nazariy qarashlariga tayangan holda xulosalar chiqarildi.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Tahlillar jarayonida efir materiallari transkripsiya qilinib, ulardagi leksik birliklar funksional-uslubiy jihatdan tasniflandi. Tadqiqot davomida telejurnalistika tilidagi o‘zgarishlarning kommunikativ, psixolingvistik va ijtimoiy omillari aniqlashga harakat qilindi.

Muhokama

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, bugungi xususiy telekanallarda adabiy normadan chekinish holatlari tobora kuchayib bormoqda. Ayniqsa yosh auditoriyaga mo‘ljallangan ko‘ngilochar dasturlarda ekspressiv-emotsional birliklar va jargonlarning qo‘llanishi faollashgan.

Bugungi xususiy telekanallarda efirga uzatilayotgan ko‘ngilochar dasturlar tilida adabiy normadan chekinish holatlari ko‘p uchramoqda. Ayniqsa yosh auditoriyaga mo‘ljallangan ko‘rsatuvlarda ekspressiv-emotsional birliklar, jargon va varvarizmlarning qo‘llanishi kuchaygan.

Masalan, ayrim telekanalida efirga uzatiladigan ayrim ko‘ngilochar loyihalarda boshlovchilar tomonidan “gap yo‘q”, “vabshe”, “bombaaa”, “shok”, “klass” kabi birliklar muntazam qo‘llaniladi. Jumladan, musiqiy va ko‘ngilochar chiqishlar muhokamasi davomida “Bu chiqish vabshe zo‘r bo‘ldi” kabi jumlar ishlatilishi kuzatiladi. Ushbu birliklar adabiy tilga xos bo‘lmagan ekspressiv leksika hisoblanadi.

Tilshunoslikda bunday holat “jargonlashuv” deb yuritiladi. Jargonlashuv jarayonida so‘zlashuv tiliga xos birliklar ommaviy kommunikatsiya vositalariga kirib keladi va asta-sekin ommalashadi. Bu esa yoshlar nutqiga bevosita ta‘sir qiladi. T. Qudratovning fikricha, “ommaviy axborot vositalaridagi nutq namunasi keng auditoriya uchun til me‘yorining amaliy ko‘rinishi hisoblanadi” (Qudratov, 2003, 78-bet).

Shuningdek, ayrim tok-shoularda boshlovchilarning ortiqcha hissiyot bilan gapirishi, undov birliklarni ko‘paytirishi ham kuzatiladi. Masalan: “Shunaqangi daxshat voqea bo‘ldiki!” yoki “Buni ko‘rib shok bo‘lasiz!” kabi iboralar jurnalistik neytrallikdan uzoqlashgan nutq namunasi sanaladi.

Bunday birliklarning ko‘payishi telejurnalistika tilining soddalashuviga va emotsionallashuviga olib kelmoqda. Natijada adabiy tilning uslubiy imkoniyatlari qisqarib, nutqning kommunikativ sifati pasayadi.

Globalizatsiya jarayonlari natijasida media tilida ingliz va rus tillaridan o‘zlashayotgan birliklar soni keskin ortdi. Zamonaviy telejurnalistikada ayrim xorijiy birliklar o‘zbekcha muqobili mavjud bo‘lsa-da, asl shaklda qo‘llanmoqda.

Masalan, xususiy telekanalidagi ayrim ko‘rsatuvlarda “trend”, “blogger”, “content”, “feedback”, “like bosish”, “story joylash” kabi birliklar ishlatiladi. Holbuki, “trend” o‘rnida “ommalashgan mavzu”, “content” o‘rnida “mazmun”, “feedback” o‘rnida “fikir-mulohaza” kabi variantlardan foydalanish mumkin.

Ayniqsa ijtimoiy tarmoqlar bilan bog‘liq ko‘rsatuvlarda inglizcha birliklar ko‘payib bormoqda. Misol uchun: “Bu video hozir trendga chiqdi” yoki “Kontent uchun yangi loyiha tayyorlandi” kabi jumlar efirda tez-tez uchraydi.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Tilshunoslikda bunday birliklar “varvarizm” deb ataladi. Varvarizm — tilga zaruriy ehtiyojsiz kirib kelgan chet til birliklaridir. A, Xo‘jayevaning ta’kidlashicha, “chet tillaridan kirayotgan birliklarning me’yoriy muqobili mavjud bo‘lsa, milliy variantni saqlab qolish til madaniyatining asosiy talabi hisoblanadi” (Xo‘jayeva, 2006, 92-b).

Shuningdek, telekanalidagi ayrim ko‘ngilochar dasturlarda “xayp”, “prank”, “top loyiha” kabi iboralar ishlatilishi kuzatiladi. “Xayp” so‘zi inglizcha “hype” birlikidan kirib kelgan bo‘lib, “sun’iy mashhurlik” yoki “shov-shuv” ma’nosini anglatadi. Biroq bu birlikning televideniye tilida ortiqcha qo‘llanishi milliy leksikaning siqilishiga olib kelmoqda.

Televideniye tilida hududiy sheva elementlarining kuchayishi ham dolzarb muammolardan biridir. Ayniqsa seriallar, realiti-shoular va ijtimoiy ko‘rsatuvlarda boshlovchi yoki ishtirokchilar nutqida adabiy norma bilan sheva unsurlari aralashib ketmoqda. Masalan, ayrim boshlovchilar nutqida: “kelvotti”, “bo‘votti”, “ketti”, “opkeling” kabi qisqargan shakllar qo‘llanadi. Ushbu birliklar so‘zlashuv uslubida tabiiy bo‘lsa-da, ommaviy efir nutqida me’yoriy variantlar ustuvor bo‘lishi kerak.

Tilshunoslar buni “so‘zlashuv tilining ekranlashuvi” deb baholaydilar. Ya’ni oddiy kundalik nutq ommaviy media orqali standart nutqqa aylana boshlaydi. Bu holat yoshlar orasida adabiy talaffuzning zaiflashishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Ayrim seriallarda qahramon xarakterini ochish uchun shevadan foydalanish tabiiy hodisa sanaladi. Biroq boshlovchi yoki jurnalistning muallif nutqi adabiy til asosida qurilishi lozim. Aks holda televideniye adabiy norma targ‘ibotchisi vazifasini bajara olmay qoladi.

Media tilida kuzatilayotgan muammolardan yana biri — semantik siljishdir. Bu jarayonda so‘zlarning asl ma’nosi kengayib yoki noto‘g‘ri qo‘llanib, mantiqiy xatolar yuzaga keladi.

Masalan, ayrim teleko‘rsatuvlarda: “daxshat yaxshi” yoki “o‘ldiradigan darajada kulgili” kabi mantiqan qarama-qarshi birliklar ishlatiladi. “Daxshat” so‘zi aslida salbiy semantik ma’noga ega bo‘lsa-da, yoshlar nutqida ijobiy ma’noda ham qo‘llanmoqda. Bu hodisa semantik transformatsiyaning yaqqol ko‘rinishi hisoblanadi.

Shuningdek, jurnalistik materiallarda ba’zan rasmiy uslub bilan so‘zlashuv uslubi aralashib ketadi. Masalan: “Bomba loyiha boshladi” kabi jumlar rasmiy axborot uslubiga mos kelmaydi.

Bunday holatlar nutqning uslubiy yaxlitligini buzadi hamda jurnalistik matnning ilmiy va axboriy sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Telejurnalistikadagi leksik muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi choralarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1. Telekanallar huzurida tilshunos mutaxassislardan iborat leksik monitoring guruhlarini tashkil etish.
2. Boshlovchi va jurnalistlar uchun muntazam “Nutq madaniyati” seminarlarini tashkil qilish.
3. Ko‘ngilochar dasturlarda ham adabiy til me’yorlariga rioya qilishni talab etuvchi ichki reglament ishlab chiqish.
4. Dublyaj va tarjima jarayonlarida milliy leksikaga mos variantlardan foydalanish.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



5. Oliy ta’lim muassasalarida “Media lingvistika” yo‘nalishini rivojlantirish.

Davlat tilining ommaviy axborot vositalaridagi nufuzi jamiyatning umumiy ma’naviy darajasini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu sababli telejurnalist nutqiga mas’uliyat bilan yondashish zarur.

Xulosa

Zamonaviy o‘zbek telejurnalistikasida leksik transformatsiyalar global kommunikatsiya va media bozoridagi raqobat natijasida yuzaga kelmoqda. Ayniqsa xususiy telekanallarda jargonlar, varvarizmlar, shevaga oid birliklar hamda semantik siljishlarning kuchayishi kuzatilmoqda. Bu jarayon bir tomondan tilning tabiiy rivojlanishini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan adabiy til me‘yorlariga xavf tug‘diradi.

Televideniye keng auditoriyaga ta’sir qiluvchi eng kuchli kommunikativ vosita bo‘lgani sababli uning tili ham adabiy norma asosida shakllanishi lozim. Media tilidagi har qanday o‘zgarish jamiyat nutq madaniyatiga bevosita ta’sir qiladi. Shu jihatdan jurnalistlarning til mas’uliyatini oshirish, efir nutqini nazorat qilish va milliy leksikani asrash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N. Mahmudov. Til va Madaniyat, – Toshkent: Fan, 1992.
2. T. Qudratov. Nutq madaniyati asoslari, – Toshkent: O‘qituvchi, 2003.
3. A. Xo‘jayeva. Notiqlik san’ati, – Toshkent: Fan, 2006
4. R.Mahmudov. Notiqlik san’ati va nutq madaniyati. (o‘quv uslubiy majmua) G., 2015.
5. H.Ne‘matov. So‘z, uning til va nutqdagi o‘rni. “O‘zbek tili va adabiëti” jurnali. 1988. №6. 38-42 betlar.

